



UDK: 37.014(575.1)

Naimjon XOJIQULOV,

PhD, Fan va texnologiyalar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: naimxojiqulov@gmail.com. ORCID: 0009-0007-5495-3893

USAT dotsenti, PhD R.Rasulov taqrizi asosida

REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

This article analyzes the historical-legal, institutional, and socio-pedagogical content of the reforms implemented in the education system of Uzbekistan during the years of independence. The formation of the national education model since the 1990s, the Laws “On Education,” the National Program for Personnel Training, and the reforms in preschool education, general secondary education, professional education, and higher education are consistently examined. Special attention is also paid to the changes that have taken place since 2017 in the areas of education management, coverage, quality, digitalization, and international integration.

Key words: Independence, education reform, National Program for Personnel Training, continuous education, higher education, preschool education, human capital, digital education.

РЕФОРМЫ В СФЕРЕ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируется историко-правовое, институциональное и социально-педагогическое содержание реформ, осуществлённых в системе образования Узбекистана в годы независимости. Последовательно изучены формирование национальной модели образования начиная с 1990-х годов, законы «Об образовании», Национальная программа по подготовке кадров, а также обновления в системе дошкольного, общего среднего, профессионального и высшего образования. Кроме того, особое внимание уделяется изменениям, произошедшим после 2017 года в сфере управления образованием, расширения охвата, повышения качества, цифровизации и международной интеграции.

Ключевые слова: Независимость, реформа образования, Национальная программа по подготовке кадров, непрерывное образование, высшее образование, дошкольное образование, человеческий капитал, цифровое образование.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDAGI TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Annotsatsiya

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekiston ta‘lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning tarixiy-huquqiy, institutsional va ijtimoiy-pedagogik mazmuni tahlil qilingan. 1990-yillardan boshlab milliy ta‘lim modelining shakllanishi, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, professional ta‘lim va oliy ta‘lim tizimidagi yangilanishlar izchil o‘rganilgan. Shuningdek, 2017-yildan keyingi bosqichda ta‘lim sohasida boshqaruv, qamrov, sifat, raqamlashtirish va xalqaro integratsiya yo‘nalishlarida yuz bergan o‘zgarishlarga alohida e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, ta‘lim islohoti, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, uzluksiz ta‘lim, oliy ta‘lim, maktabgacha ta‘lim, inson kapitali, raqamli ta‘lim.

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng jamiyatning barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta‘lim tizimida ham tub islohotlar zarurati yuzaga keldi. Chunki sobiq ittifoq davrida shakllangan ta‘lim tizimi mazmunan markazlashgan mafkuraviy boshqaruvga, iqtisodiyot ehtiyojlaridan ko‘ra ko‘proq siyosiy-ideologik vazifalarga xizmat qilgan edi. Mustaqillik sharoitida esa milliy davlatchilik, bozor iqtisodiyoti, demokratik jamiyat va fuqarolik institutlari taraqqiyoti uchun yangicha fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, zamonaviy bilim va kasb-hunar egasi bo‘lgan kadrlarni tayyorlash asosiy vazifaga aylandi. Ta‘lim sohasidagi dastlabki islohotlar, avvalo, huquqiy asoslarni yangilashdan boshlandi. 1992-yilda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi dastlabki qonun qabul qilindi, keyinchalik 1997-yil 29-avgustda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Mazkur hujjatlar mustaqil O‘zbekiston ta‘lim tizimining konseptual asoslarini belgilab berdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mustaqillik sharoitida ta‘lim mazmunini qayta tashkil etish, yangi o‘quv rejalari, dasturlar, darsliklar, attestatsiya va akkreditatsiya tizimini joriy etish zarurligi qayd etilgan.

Ta‘lim sohasidagi islohotlarning keyingi bosqichi 2017-yildan boshlab yanada jadallashdi. Maktabgacha ta‘lim

tizimini tubdan takomillashtirish, oliy ta‘lim qamrovini oshirish, nodavlat ta‘lim muassasalarini rivojlantirish, xalqaro universitetlar filiallarini ochish, kredit-modul tizimini joriy etish, raqamli ta‘lim platformalarini kengaytirish kabi yo‘nalishlar davlat siyosatining ustuvor vazifalariga aylandi. Xususan, 2020-yilda yangi tahrirdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, ta‘lim turlari, shakllari, ta‘lim tashkilotlari maqomi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Metodlar. Tarixiy-qiyosiy, tizimli-tahliliy, huquqiy-tahliliy va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalandik. Tarixiy-qiyosiy metod orqali mustaqillikning dastlabki yillaridagi ta‘lim islohotlari bilan keyingi bosqichdagi modernizatsiya jarayonlari solishtirildi. Tizimli yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim, professional ta‘lim va oliy ta‘lim yagona uzluksiz ta‘lim tizimining tarkibiy qismlari sifatida o‘rganildi.

Huquqiy-tahliliy metod yordamida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunlar, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Prezident farmonlari va davlat strategiyalarida belgilangan vazifalar tahlil qilindi. Jumladan, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmon bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

konsepsiyasida oliy ta'limni iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari bilan bog'lash, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish vazifalari belgilangan (Lex.uz). Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, yoshlar salohiyatini rivojlantirish va inson kapitaliga investitsiyani kuchaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Natijalar. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar bir necha asosiy bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 1991–1997-yillarni qamrab olib, bu davrda milliy ta'lim tizimining huquqiy va tashkiliy asoslari shakllantirildi. Mustaqil davlatning ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ona tili, ma'naviyat va fuqarolik tarbiyasi bilan boyitish jarayoni boshlandi. Bu davrda ta'limning asosiy maqsadi sobiq mafkuraviy qoliplardan voz kechgan holda mustaqil fikrovchi shaxsni tarbiyalashga qaratildi.

Ikkinchi bosqich 1997-yilda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinishi bilan boshlandi. Mazkur dastur ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta'limni shakllantirish, shaxs, davlat va jamiyat ehtiyojlari o'rtasidagi uzviylikni ta'minlashga xizmat qildi. Dasturda ta'lim tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, yangi avlod darsliklarini yaratish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish kabi vazifalar belgilandi [1]. Ushbu bosqichda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi shakllantirilib, yoshlarni umumiy o'rta ta'limdan keyin kasbiy yo'naltirishga alohida e'tibor qaratildi.

Uchinchi bosqich 2017-yildan keyingi ta'lim modernizatsiyasi bilan bog'liqdir. Bu davrda ta'lim tizimida qamrov va sifat masalasi davlat siyosatining markaziga chiqdi. Maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ining kengaytirilishi, davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'chalar sonining ortishi bolalarni erta yoshdan ta'lim-tarbiyaga jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. 2017-yilgi PF-5198-son Farmonda maktabgacha ta'lim tizimini boshqaruv jihatidan tubdan takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Oliy ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Oliy ta'lim muassasalari soni oshdi, xususiy va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati kengaydi, qabul kvotalari ko'paytirildi. 2019-yilgi oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada raqobat muhitini yaratish va xalqaro reytinglarda milliy universitetlar o'rmini yaxshilash kabi vazifalar belgilandi. Bu esa ta'lim tizimining yopiq va cheklangan modeldan ochiq, raqobatbardosh va innovatsion modelga o'tayotganini ko'rsatadi.

Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun esa ta'lim shakllarining xilma-xilligini huquqiy jihatdan mustahkamladi. Unda kunduzgi, sirtqi, kechki, masofaviy, dual, oilaviy ta'lim va mustaqil ta'lim kabi shakllar belgilanishi zamonaviy ta'lim ehtiyojlariga mos yondashuv sifatida baholanishi mumkin [2]. Ayniqsa, masofaviy ta'lim va raqamli texnologiyalarning qonuniy asosga ega bo'lishi pandemiya va postpandemiya sharoitida ta'limning uzluksizligini ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

Muhokama. Mustaqillik yillaridagi ta'lim islohotlarining eng muhim jihati shundaki, ular faqat tashkiliy o'zgarishlar bilan cheklanib qolmadi, balki ta'lim falsafasi va mazmunini ham o'zgartirdi. Avvalgi tizimda ta'lim ko'proq bilimni tayyor shaklda yetkazish, o'quvchini mavjud bilimlarni yodlashga yo'naltirishga asoslangan bo'lsa, yangi davrda tanqidiy tafakkur, ijodkorlik, mustaqil izlanish, amaliy kompetensiya va innovatsion fikrlash kabi sifatlar muhim

ahamiyat kasb eta boshladi. Shu bilan birga, ta'lim islohotlarining barcha bosqichlari bir xil darajada samarali kechgan deb bo'lmaydi. Masalan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi dastlab yoshlarni kasbga yo'naltirishda muhim model sifatida qaralgan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim hududlarda moddiy-texnik baza, mehnat bozori bilan bog'liqlik, pedagog kadrlar salohiyati va bitiruvchilarning bandligi borasida muammolar yuzaga keldi. Keyingi yillarda professional ta'lim tizimining qayta tashkil etilishi aynan shu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratildi.

Ta'lim tizimidagi zamonaviy islohotlarning yana bir muhim yo'nalishi xalqaro integratsiyadir. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallarining ochilishi, xalqaro qo'shma ta'lim dasturlarining yo'lga qo'yilishi, kredit-modul tizimiga o'tish, akademik mobillik imkoniyatlarining kengayishi O'zbekiston ta'lim tizimini global ta'lim makoniga yaqinlashtirmoqda [3]. Biroq xalqaro integratsiya jarayonida milliy ta'lim an'analari, ona tili, tarixiy xotira va ma'naviy tarbiya masalalarini saqlab qolish ham muhim ahamiyatga ega.

Raqamli ta'lim masalasi ham mustaqillik yillaridagi islohotlarning yangi bosqichini belgilab bermoqda. Elektron kundalik, masofaviy ta'lim platformalari, raqamli darsliklar, onlayn kurslar, ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Ammo raqamlashtirish bilan birga raqamli tengsizlik, internet infratuzilmasi, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi, elektron resurslar sifati kabi masalalar ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ta'lim sohasidagi islohotlarning ijtimoiy ahamiyati shundaki, ular inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy davlat taraqqiyotida tabiiy resurslardan ko'ra bilim, intellekt, kasbiy malaka va innovatsion salohiyat hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Shu jihatdan O'zbekistonda ta'lim tizimiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralishi bevosita iqtisodiy modernizatsiya, ijtimoiy barqarorlik va milliy raqobatbardoshlik bilan bog'liqdir [4].

Xulosa. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar milliy davlatchilik taraqqiyotining ajralmas qismi bo'ldi. Dastlabki bosqichda ta'lim tizimining huquqiy asoslari yaratildi, milliy qadriyatlariga asoslangan ta'lim mazmunini shakllantirildi. 1997-yilda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" esa uzluksiz ta'lim tizimini barpo etish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta'limni jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishda muhim konseptual hujjat vazifasini bajardi. 2017-yildan keyingi bosqichda ta'lim islohotlari yangi mazmun kasb etdi. Maktabgacha ta'lim qamrovining kengayishi, umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish, professional ta'limni qayta tashkil etish, oliy ta'lim muassasalari sonining ortishi, xalqaro hamkorlik va raqamli ta'limning rivojlanishi ta'lim tizimini zamonaviy talablar asosida yangilashga xizmat qildi. Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ta'lim tizimining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirib, ta'lim shakllarining moslashuvchanligini ta'minladi [5].

Shu bilan birga, ta'lim islohotlarining keyingi samaradorligi bir necha omillarga bog'liq: pedagog kadrlar sifatini oshirish, ta'lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, ta'limda korrupsiyaviy omillarni kamaytirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar ta'limni mamlakat taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylantirishga qaratilgan [6]. Demak, mustaqillik yillaridagi ta'lim islohotlari O'zbekistonning intellektual, ma'naviy va iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi uzluksiz modernizatsiya jarayoni sifatida baholanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi 463-I-son Qonuni. – Toshkent, 1997-yil 29-avgust.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 8-oktabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 61.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – Toshkent, 2022-yil 28-yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "'O'zbekiston – 2030' strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. – Toshkent, 2023-yil 11-sentabr.
7. Rasulov, R. "The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth." Академические исследования в современной науке 3, no. 48 (2024): 124-132.
8. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. – 2025. – T. 1. – №. 3. – C. 35-39.
9. Odilovich, Rasulov Rustambek. The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth Vol. 3 No. 12 (2024): International journal of european research output (IJERO).
10. Odilovich R. R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2024. – T. 37. – C. 32-41.
11. Odilovich R. R. Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri //International Journal of Scientific Research. – 2023. – T. 2. – C. 147-152.
12. Odilovich R. R. Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505 [Электронный ресурс].
13. Rasulov R. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.4. 1. – C. 169-171.
14. Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: C# WinForms asosida kalkulyator modeli //Academic Research in Modern Science, International scientific-online conference. – 2023.
15. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo'lgan ta'siri //«ACTA NUUZ». – 2025. – T. 1. – №. 1.12. – C. 176-179.
16. Rasulov R. Raqamli transformatsiya davrida siyosiy mafkuralarning kelajakdagi shakllanish imkoniyatlari //«ACTA NUUZ». – 2026. – T. 1. – №. 1.2. – C. 163-165.